KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA AMALIYOTDAGI AHVOLI.

Abdumannotov Elbek Abdumajitovich, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
e-mail: elbekdumannotov@gmail.com
Kobilova Nigora Ashurboy qizi, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 2-kurs magistranti
e-mail: nigorakobilova41@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda innovatsion texnologiyalar vositasida milliy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi ahvoli, davr talabidan kelib chiqib, bolalarda milliy qadriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: ta’lim, innovatsiya, texnologiya, milliy qadriyat, vositalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ СРЕДСТВАМИ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ И СИТУАЦИЯ НА ПРАКТИКЕ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогическое содержание и состояние практики формирования национальных ценностей средствами инновационных технологий у детей младшего школьного возраста, современные методы развития интеллектуального потенциала детей через национальные ценности, исходя из потребностей время представлены.
Ключевые слова: образование, инновации, технологии, национальная ценность, инструменты.

PEDAGOGICAL CONTENT OF FORMATION OF NATIONAL VALUES THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN AND SITUATION IN PRACTICE.

Abstract: In this article, the pedagogical content and state of practice of forming national values by means of innovative technologies in children of junior school age, modern methods of developing intellectual potential in children through national values, based on the needs of the time, are presented.
Key words: education, school, innovation, technology, national value, tools.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1], Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” [2], 2019-yil 29-aprel 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [3] kabi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab

berilgan ta’lim tizimini rivojlantirish va yoshlar tarbiyasiga e’tiborni yanada oshirish kabi vazifalar ijrosini ta’minlash jamiyatimizning asosiy burchlaridan biridir. Imorat uzoq yil xizmat qilishi uchun poydevor mustahkam bo‘lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini belgilab beradigan kuch yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratilishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

“Tarbiya jarayonining asosiy natijasi – barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, uyushtirish va rahbarlikni shuningdek o‘quvchi shaxsining o‘zi tomonidan faollik ko‘rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o‘ynaydi. Shunday ekan, hozirgi zamonaviy ta’lim-tarbiya orqali yoshlarni intellektual salohiyatni oshirishda milliy qadriyatlarni saqlash, muhofaza qilish, tiklash va ularni rivojlantirish muammolari katta ahamiyatga egadir”. [4]

Bugun davlat ijtimoiy buyurtmasi sifatida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini tarbiyalash natijasida quyidagi fazilatlarni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik. Ushbu fazilatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish borasida bir qator muammoli jihatlar mavjudligi ko‘zga tashlandi:

- Yosh o‘qituvchilarda o‘quvchilar his-tuyg‘ularini anglash va ularni boshqarish ko‘nikmasining yetarli emasligi;
- O‘quv fanlari doirasida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllanganlik darajasini aniqlovchi dikatorlarni amalga joriy etish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar mazmunini boyititilmaganligi;
- Kasblar to‘g‘isidagi tasavvurlarini kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish orqali ota-onasi, ustozlari, atrof-muhitdagi insonlar mehnati qadriga yetishga o‘rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish yetarli emasligi;
- Ma’naviy-axloqiy munosabatlarni shakllantirish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otish kabi jihatlar har bir pedagogdan yetarli bilim, ko’nikma, malaka va kompetentlikni talab qilmoqda. [5]

Ushbu munosabat bilan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni sinfda yoki sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar orqali amalga oshirilar ekan, dars davomiyligi qisqa ekanligi va qo‘shimcha mashg‘ulot olib borilishiga vaqt yetmasligini hisobga olib, darsdan tashqari olib boriladigan jarayonlar samaraliroq ekanligi ko‘zga tashlanadi. Shu sababdan, Samarqand shahri MMTBga 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 4-“A” sinf o‘quvchilari bilan Davlat tili qabul qilinganining 35-yilligi munosabati bilan oktabr oyida “Ona tilim-millat faxri” mavzusida ma’naviy tadbir tashkillashtirildi. Bunda o‘quvchilarga rollar bo‘lib berildi, sahna ko‘rinishi ta’lim muassasi a’zolariga namoyish qilindi. Tadbirga tayyorgarlik davomida shuni kuzatdikki, o‘quvchilar guruh bilan ishlash malakalarini oshirdilar, bir-birlariga ko‘maklashishlari asosida ulardagi xudbinlik hissi ma’lum darajada chekinganini ko‘rdik. Bundan tashqari, qiyin vaziyatda bir-biriga yordam berish, jo‘mardlik, o‘zbekka xos kengfe’llik hislatlarini ko‘rdik.

Kichik maktab yoshi (7-10 yosh) – bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy va ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarni tarbiyalash pedagogik jarayonning murakkab qismi bo‘lib, bolaning ruhiy, aqliy va jismoniy rivojlanishini bir-biri bilan uyg‘un ravishda tashkil qilishni talab etadi. [6]

Pedagogik tarbiya kichik maktab yoshidagi bolalarda axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, emotsional barqarorlik, o‘quv motivatsiyasi, o‘zini anglash pedagogik tarbiyaning maqsad va vazifalarini tashkil etadi. Bular:

- Axloqiy fazilatlar: hurmat, samimiylik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirish.

- Ijtimoiy ko‘nikmalar: ota-ona bilan ishlash, do‘stona munosabatlar o‘rnatish va tartib-qoidalarga rioya qilish.

- Emotsional barqarorlik: o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rgatish va boshqalar bilan samimiy muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish.

- O‘quv motivatsiyasi: ta'lim jarayoniga qiziqishni uyg‘otish va bilimga bo‘lgan intilishni shakllantirish.

- O‘zini anglash: bolaga o‘z qiziqishlari va kuchli jihatlarini anglashda yordam berish [6].

Tarbiya mazmunining tarkibiy qismlari axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasini o‘z ichiga oladi.

a) Axloqiy tarbiya orqali bolalarga jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘rgatish, ularni oilada va maktabda madaniyatli bo‘lishga, o‘zgalarga yordam berishga yo‘naltirishda foydalanamiz. Aqliy tarbiya bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qiziqarli topshiriqlar va o‘yinlarda qo‘llaniladi, ularni mantiqiy va ijodiy tafakkurga yo‘naltirish orqali o‘qish jarayoniga faol jalb qilishda ko‘mak beradi.

b) Jismoniy tarbiya bolalarning jismoniy salomatligini mustahkamlash uchun sport va faol o‘yinlar bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish, sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish va gigiyena qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish kabi muhim jarayonlarda ko‘mak beradi. [7]

Pedagogik jarayonining muhim xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- Individuallashtirilgan yondashuv: Har bir bolaning shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladigan ta’lim va tarbiya usullarini qo‘llash.
- O‘yin orqali o‘qitish va tarbiyalash: Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o‘yinlar bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.
- Ijtimoiylashuv: Bolalarni jamoaviy faoliyatlarga jalb qilish orqali ularda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- O‘quv-motivation tizimi: Rag‘batlantirish orqali bolalarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va maqsad sari intilishni shakllantirish.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda uning pedagogik usul va shakllari mavjud bo‘lib, og‘zaki ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, interfaol usullar, rag‘batlantirish kabilardan foydalanish jarayonni samarali o‘tishida yordam beradi [6].

Axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga rioya qiluvchi, o‘zaro munosabatlarda ijobiy ko‘nikmalarga ega shaxsni tarbiyalash, ta’lim jarayonida faol va ishtirokchi bo‘lishga tayyor bo‘lgan, bilimga chanqoq bolalarni shakllantirish, estetik zavq va ijodkorlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan, jismonan sog‘lom va faol shaxsni rivojlantirish tarbiya jarayonidan kutiladigan natijalar hisoblanadi.

Shu o‘rinda, milliy qadriyatlarni singdirishda p.f.d., professor Muhammad Quronov tomonidan taklif qilingan tarbiyaning 44 usulidan quyidagilarni kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida tadbiq qilinsa, kafolatlangan natijalarga erishish mumkin:

T/r	Metod	Mazmuni	Natijasi
1	Baholamoq	Bola xulqiga uning ahamiyati, qadr-qimmati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirish.	O‘quvchilarda o‘z xulq-atvorini anglash va uni yaxshilashga intilish paydo bo‘ldi.

2	Biriktirmoq	O‘quvchini axloqda yoki hunarda namuna bo‘lgan ustoz tarbiyasiga bermoq.	O‘quvchilarda yaxshi ustozlar va kattalardan o‘rnak olish orqali ijobiy xislatlar shakllandi.
3	Inoqlashtirmoq	Bola bilan yaqin, do‘stona munosabat bog‘lash orqali tarbiya berish.	O‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy ish va bir-biriga yordam berish ko‘nikmalari rivojlandi.
4	Kengashmoq	Sinf jamoasi oldidagi muammolarni birgalikda muhokama qilish.	O‘quvchilar o‘rtasida muloqot va mas’uliyat hissi oshdi.
5	Kuzatmoq	Bolalarning xulq-atvorini kuzatish va qayd qilish.	Bolalardagi ijobiy o‘zgarishlar aniqlanib, ularga qo‘shimcha rag‘bat berildi.
6	Maqtamoq	Bola yoki uning faoliyati haqida yaxshi fikrlarni ochiq bildirish.	O‘quvchilarda ishonch va o‘zini yuqori baholash hissi shakllandi.

Baholamoq – bola xulqiga uning ahamiyati, qadr-qimmati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq. Biz tadbir davomida o’quvchilarning chiqishlari, harakatlari va xulqlariga ham baho berib bordik va ularda shunga ko‘ra ijobiy o‘zgarishlarni kuzatdik.

Biriktirmoq – odob-axloqda, biror hunarda ko‘pchilikka namuna bo‘lgan ustoz tarbiyasiga bermoq.

Inoqlashtirmoq – bola bilan yaqin, do‘stona munosabat bog‘lamoq. Tadbir davomida o‘quvchilar birgalikda harakat qildilar.

Kengashmoq – bola bilan sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq. Barcha o‘quvchilar bilan qanday chiqish qilish va rollarni taqsimlash, barcha jarayonlar haqida kengashildi.

Kuzatmoq – sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko‘zdan kechirmoq, qayd qilmoq. Birgalikda harakat qilish va bir-biriga yordam berish o‘quvchilarda qanday ijobiy hislar berayotganini kuzatdik.

Maqtamoq- bolani uning o‘ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko‘rsatib gapirmoq. Albatta, harakatlari uchun o‘quvchilarni alqadik va bu ularga olam quvonch berdi”

Shuni hisobga olish kerakki, kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash, pedagogik nuqtai nazardan, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun asos yaratadi. Shu sababdan bu jarayon oilaviy tarbiya, maktab faoliyati va o‘qituvchining doimiy kuzatuvi bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularda ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, faxr va milliy ruhni ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”.

3. 2019-yil 29-aprel 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

4. “Yoshlarda milliy qadriyatlar orqali intellektual salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani 15-aprel, 2021-yil.

5. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 165-169]

6. Abduqodirov A., Begmatova N. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. – Qarshi: “Nasaf”, 2011. – B. 57.

7. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi” FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. – B. 232 https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/58

8. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta’limda integral darslar – innovatsion loyiha sifatida. “Science and Innovation”. International sicentific journal. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6626043, №. 2, 2022. – B. 292.